



Qualification issues for repeat offenders

Shokhsanam RAIMOVA¹

Higher School of Judges

ARTICLE INFO

Article history:

Received January 2024
Received in revised form
15 January 2024
Accepted 25 February 2024
Available online
15 March 2024

Keywords:

qualifications,
repeat offenders,
behavior,
motivation,
life experience,
factors of relapse,
crime prevention.

ABSTRACT

The article examines the qualifications of repeat offenders, their behavior, and motivation. The authors explore the characteristics of the life experiences of repeat offenders, recidivism factors, and possible ways to prevent repeated crimes.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss2/S-pp240-244>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Retsidiv jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish masalalari

Kalit so'zlar:

malaka,
takroriy huquqbuzarlar,
xatti-harakatlar,
motivatsiya,
hayotiy tajriba,
qaytalanish omillari,
jinoyatlarning oldini olish.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada takroriy huquqbuzarlarning malakasi, ularning xatti-harakati va motivatsiyasi ko'rib chiqiladi. Muallif takroriy jinoyat sodir etgan shaxslarning hayotiy tajribasining xususiyatlarini, takroran jinoyat sodir etish omillarini va takroriy jinoyatlarning oldini olishning mumkin bo'lgan usullarini tahlil qiladi.

Вопросы квалификации преступников-рецидивистов

Ключевые слова:

квалификация,
преступники-
рецидивисты,
поведение,
мотивация,
жизненный опыт,
факторы рецидива,
профилактика
преступлений.

АННОТАЦИЯ

В данной статье исследуются квалификация, поведение и мотивация преступников-рецидивистов. Автор детально анализирует жизненный опыт лиц, совершивших повторные преступления, исследует факторы, способствующие рецидиву, и обсуждает возможные стратегии предотвращения повторных преступлений.

¹ Listener, Higher School of Judges.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda jinoyatchilik muammosi va takroriy jinoyatchilar tahdidi tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Sudlangan shaxslar tomonidan takroran sodir etilgan jinoyatlarni tasniflash huquqiy ish va huquqbuzarliklar profilaktikasining muhim yo'nalishi hisoblanadi. Ushbu maqolada takroriy jinoyat sodir etganlarning malakasi, ularning motivatsiyasi, xatti-harakati, shuningdek, takroriy jinoyat sodir etish ehtimoliga taʼsir qiluvchi hayotiy tajribaning xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Qayta jinoyat sodir etish omillarini o'rganish, takroriy jinoyatlarning oldini olish usullarini ishlab chiqish jamiyat va huquqni muhofaza qilish tizimi uchun muhim ahamiyatga ega.

Huquq tizimida jinoyatlarni tasniflash, huquqbuzarlik sodir etgan shaxsning javobgarlik xususiyati va darajasini belgilab beruvchi muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, takroran jinoyat sodir etish to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishda jamoat xavflilik darajasini adekvat baholash va keyingi jinoyatlarning oldini olish bo'yicha ta'sirchan chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun ularning oldingi jinoiy tajribasini hisobga olish ayniqsa muhimdir.

Ushbu maqolada takroran jinoyat sodir etgan shaxslarning jinoyatlarini tasniflashning asosiy jihatlari, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sudlar tomonidan takroran jinoyat sodir etishga qarshi kurashda duch keladigan muammo va muammolar ko'rib chiqiladi. Jinoiy o'tmishda sodir bo'lgan shaxslarning ijtimoiy xavfliligini baholash masalalariga, shuningdek, takroriy jinoyatlarga qarshi yanada samarali kurashishning amaldagi huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha takliflarga alohida e'tibor qaratiladi.

METODOLOGIYA

Ushbu maqolani tayyorlashda chet ellik olimlarning mavzu yuzasidna bergan fikrlari, shuningdek, qonun hujjatlaridan keng foydalanildi.

Bundan tashqari, takroriy jinoyatlar bo'yicha statistik ma'lumotlar tahlili o'tkazildi. Mazkur tahlil huquqbuzarliklarning takror sodir etilishiga olib keladigan asosiy omillarni aniqlash, shuningdek, takroran sodir etilishining oldini olishning samarali usullarini belgilashga qaratilgan edi.

Olingan tadqiqot natijalari tahlil qilinib, retsivist jinoyatchilar o'rtasida takror jinoyat sodir etilishini kamaytirish va jamiyatda xavfsizlik darajasini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishda foydalanildi.

ASOSIY QISM (NATIJA VA XULOSA)

O'zbekiston Respublikasining amaldagi jinoyat huquqiga muvofiq retsivist jinoyatlar bir qancha jinoyat sodir etishning eng xavfli shakli hisoblanadi, chunki retsivist jinoyatlarda bir qancha jinoyat sodir etishning boshqa shakllari (takroran jinoyat sodir etish va jinoyatlar majmui)ga qaraganda shaxsdagi jinoiy niyatlarning barqarorligi, jinoyatchining to'g'ri yo'lga qaytishni qat'iy istamasligi, uning jamiyatda o'rnatilgan tartiblarga nisbatan o'ta hurmatsizlik munosabatida bo'lishi yanada qo'polroq shakllarda namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2008 yil 15 mayda qabul qilingan "Bir necha jinoyat sodir etilganda qilmishni kvalifikatsiya qilishga doir masalalar to'g'risida"gi qarorida retsivist bir necha jinoyat turlari ichida eng xavflisi bo'lib, shaxs tomonidan jinoiy xulq-atvor davom ettirilayotganligidan dalolat berishi ta'kidlab o'tilgan. Jinoyat kodeksining 34-moddasida bir qancha jinoyatlarning alohida turi bo'lgan retsivist jinoyat institutiga oid normalar belgilangan bo'lib, shaxsning ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganidan keyin qasddan yangi jinoyat sodir

etishi retsidiv jinoyat deb topiladi. Jinoyat qonunida retsidiv jinoyatlar oddiy, xavfli, o'ta xavfli turlarga ajratilgan. Jazo tayinlashda aynan ana shu turlaridan kelib chiqib retsidiv jinoyatlar uchun jazo tayinlanadi.

Retsidiv lotin tilida "recidivus" so'zidan olingan bo'lib, qaytayotgan tushunchasini beradi.

Retsidiv jinoyat tushunchasiga oid olimlarning fikrlarini quyidagi guruhlariga ajratgan holda tahlil qilishimiz mumkin. Birinchi guruh olimlari, ehtiyotsizlikdan sodir etilgan jinoyatlarni ham retsidiv jinoyatlar deb hisoblash lozimligini ta'kidlaydi. I.M.Tyajkova ehtiyotsizlikdan sodir etilgan jinoyatlarni ham retsidiv jinoyatlar deb hisoblash maqsadga muvofiqligini, chunonchi, aynan ehtiyotsizlikdan sodir etilayotgan jinoyatlar natijasida yetkazilayotgan zarar miqdori qasddan sodir etilgan jinoyatlardagi zarar miqdori bilan deyarli tengligini ta'kidlaydi. A.P.Kozlov ham amaldagi jinoyat qonunchiligiga aybning qasd shakli bilan birga ehtiyotsizlik shaklini qamrab oladigan retsidivni ham kiritishni taklif qiladi. Ikkinchi guruh olimlari, esa ehtiyotsizlikdan sodir etilgan jinoyat bilan qasddan sodir etilgan jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi o'rtasida katta farq mavjudligini ta'kidlaydi. I.G.Vozjannikova retsidiv jinoyatga aybning ehtiyotsizlik shaklida sodir etilgan jinoyatlarni kiritish maqsadga muvofiq emasligini, ancha vaqtdan buyon retsidiv jinoyat faqat takroran qasddan sodir etilgan jinoyatlarga nisbatan tatbiq etilayotganligini, boshqa tarafdin esa ehtiyotsizlikdan sodir etilgan jinoyat bilan qasddan sodir etilgan jinoyatlarning ijtimoiy xavflilik darajasi o'rtasida farqning katta ekanligi bilan asoslaydi. Bizningcha ham, ehtiyotsizlikdan sodir etilgan jinoyatlarni retsidiv jinoyatlarga kiritish maqsadga muvofiq emas. Chunki amaldagi jinoyat qonunchiligiga ko'ra ehtiyotsizlikdan sodir etilgan jinoyatlarda sudlanganlik institutining mavjudligi hech qanday ahamiyatga ega emas va jinoyat-huquqiy oqibatlarini keltirib chiqarmaydi. Undan tashqari, ehtiyotsizlikdan sodir etilgan jinoyatlarning ham retsidiv jinoyat deb topilishi JKning 8-moddasida nazarda tutilgan odillik prinsipi, ya'ni jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan qo'llaniladigan jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi odilona bo'lishi, jinoyatning og'ir-yengilligiga, aybning va shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasiga muvofiq bo'lishi haqidagi talabning, umuman olganda, uzoq yillar amalda bo'lgan retsidiv jinoyat konsepsiyasining, shuningdek amaldagi jinoyat qonunchiligi konstruksiyasining buzilishiga olib keladi.

M.H.Rustamboevning fikricha, shaxsning ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganidan keyin qasddan yangi jinoyat sodir etishi retsidiv jinoyat deb topiladi. M.Usmonaliev esa shaxsning ilgari qasddan qilgan jinoyati uchun sudlanib, sudlanganlik muddati o'tib ketmasdan yoki qonunda belgilangan tartibda olib tashlanmasdan qasddan yangi jinoyat sodir etishini retsidiv jinoyat deb ta'riflaydi. F.Toxirov retsidivist shaxsning ijtimoiy xavflilik darajasi yuqoriligiga katta e'tibor qaratadi hamda bunday shaxslar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar uchun javobgarlik choralari yanada kuchaytirish lozimligini ta'kidlaydi. A.P.Allaberganov ham retsidiv jinoyat tushunchasiga yuqoridagiga o'xshash ta'rif bergan. Shu o'rinda hukm e'lon qilingan vaqtdan to kuchga kirgunga qadar bo'lgan vaqt oralig'ida qasddan sodir etilgan jinoyat retsidiv deb topiladimi degan savol tug'ilishi mumkin.

Ushbu masalaga Oliy sud Plenumining "Bir nechta jinoyat sodir etilganda qilmishni kvalifikatsiya qilishga doir masalalar to'g'risi"dagi qarorida ham to'xtalib o'tilgan bo'lib, unga binoan hukm e'lon qilingan vaqtdan boshlab uning qonuniy kuchga kirganligi mahkumga e'lon qilingunga qadar o'tgan vaqt ichida sodir etilgan yangi jinoyat retsidiv

jinoyatni tashkil etmaydi. Ayni paytda JKning 56-moddasi “n” bandiga binoan retsidiv jinoyat jinoyat sodir etgan shaxsning qilmishi jazoni og'irlashtiruvchi holatlardan biri sifatida inobatga olinadi. Undan tashqari, JK Maxsus qismining bir qator moddalarida retsidiv jinoyat maxsus kvalifikatsiyalovchi belgi sifatida alohida belgilangan.

Amaldagi JKda retsidiv jinoyatga nisbatan xavfli retsidiv jinoyatning farqi shaxs ilgari hukm qilingan jinoyatiga o'xshash jinoyat sodir etgan, JKda alohida ko'rsatilgan hollarda esa Maxsus qismning boshqa moddalari bilan ham hukm qilingan shaxsning qasddan yangi jinoyat sodir etishidir.

Kvalifikatsiya so'zi lotincha “qualis”-“qanday”, “qanday sifatli” va “facere” – “qilish” ma'nolarini anglatadi. Ta'kidlash joizki, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish surishtiruv, dastlabki tergov va sud organlari tomonidan amalga oshirilib, sudning qonuniy kuchga kiruvchi yakuniy hukmi bilan mustahkamlanadi. “Kvalifikatsiya” iborasi ko'p qirralidir. U qandaydir “toifa yoki guruhga tegishli bo'lgan hodisa yoki predmetning yuqori darajali tayyorgarligi va xususiyati (bahosi)ni bildiradi. Aynan shuning uchun “kvalifikatsiya” tushunchasi huquq sohasida qonun nuqtai nazaridan shaxslarning ijtimoiy xavfli xususiyatga ega bo'lgan xatti-harakatlariga huquqiy baho berishga xizmat qiladi. Jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish - bu sodir etilgan qilmish belgilari bilan Jinoyat kodeksi Maxsus qismida nazarda tutilgan jinoyat tarkibi belgilarining bir-biriga to'liq mos kelishini aniqlash va yuridik jihatdan mustahkamlashdir.

JKning amaldagi tahririda xavfli retsidivist yoki o'ta xavfli retsidivist tomonidan tegishli jinoyatlar uchun javobgarlik kuchaytirilgan. Ushbu qoida og'irlashtiruvchi holatlardan foydalanish uchun sabab va shunga ko'ra shaxs tomonidan jinoyat sodir etilgan taqdirda ham ob'ektiv asosda og'irlashtiruvchi holatlar mavjud bo'lmagan holatlarda javobgarlikni oshirish uchun sababdir. Masalan, o'ta xavfli retsidivist deb tan olingan shaxs JK 169-moddasi 1-qismida javobgarlik belgilangan jinoyatni sodir etadi. Shaxs ilgari o'ta xavfli retsidivist deb tan olinganligi sababli, uning xarakatlari JKning 169-modda 4-qismi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Ushbu misoldan ko'rinib turibdiki, shaxs aslida ijtimoiy xafvi katta bo'lmagan jinoyat sodir etgan, ammo o'ta og'ir jinoyati uchun sudlangan. Ushbu qoida odillik prinsiplariga zid, chunki shaxsning ilgari sodir etgan jinoyati uchun jazoni o'taganligi yoki sudlanganlik holatining bekor bo'lganligi yangi sodir etilgan jinoyati uchun tayinlanadigan jazoga ta'sir etmasligi kerak.

Mamlakatimizdagi ayrim huquqshunos olimlarimiz bir nechta hukm yuzasidan jazo tayinlash haqida so'z ketganda bir nechta hukm yuzasidan jazo tayinlashning jinoyat qonunchiligida mustahkamlangan qoidasi O'zbekiston Respublikasi JKning 34-moddasida nazarda tutilgan retsidiv jinoyat tushunchasiga muvofiq kelishini ta'kidlab, bunda JKning 34-moddasida belgilangan, shaxsning ilgari qasddan sodir etgan jinoyati uchun sudlanganidan keyin qasddan yangi jinoyat sodir etishi retsidiv jinoyat deb aytilishini, bunda JKning 34-moddasidagi retsidiv jinoyat bilan JKning 60-moddasida nazarda tutilgan tushunchalarni solishtirib tahlil qilinganda, 34-moddadagi retsidiv jinoyat tushunchasi faqat qasddan qilingan jinoyat uchun sudlanganidan keyin yana qasddan jinoyat sodir etganlikni nazarda tutishini, JKning 60-moddasidagi bir nechta hukm tushunchasi esa mahkumga nisbatan har qanday jinoyati uchun (qasddan yoki ehtiyotsizliqdan qilinganidan qat'i nazar) jazo tayinlashni nazarda tutishidan kelib chiqqan holda retsidiv jinoyat uchun jazo tayinlash tushunchasiga nisbatan bir nechta hukm tushunchasi ancha kengroq hisoblansada, lekin shunga qaramasdan, bir nechta

hukm yuzasidan jazo tayinlash tushunchasi ham bir nechta jinoyat sodir qilish doirasiga kirishini ta'kidlab o'tadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, retsidivist jinoyat sodir etgan shaxslarning malaka masalalari ko'p qirrali bo'lib, ularning takroran jinoyat sodir etishiga sabab bo'layotgan omillarni bartaraf etishda kompleks yondashuvni talab qiladi. Retsidivist jinoyatchilarning murakkab motivlari va tajribalarini sifat va miqdoriy tadqiqot usullari orqali tushunish orqali biz ularning jinoiy xatti-harakati ortida turgan harakatlantiruvchi kuchlar haqida qimmatli tushunchalarga ega bo'lishimiz mumkin.

Qayta jinoyat sodir etishning samarali oldini olish uchun individual yordam, jamoat resurslari va jinoiy sud tizimidagi tizimli islohotlarni birlashtirgan yaxlit yondashuv talab etiladi. Ta'lim, kasbiy tayyorgarlik, ruhiy salomatlik xizmatlari va uy-joy yordamini ta'minlash jinoiy xatti-harakatlar siklini buzish va jamiyatga muvaffaqiyatli reintegratsiyani rivojlantirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://www.cambridge.org/core/journals/leiden-journal-of-international-law/article/new-influence-of-legal-scholars-the-use-of-academic-writings-at-international-criminal-courts-and-tribunals/7DDAAB3087209EA1AF5392B1E77C1009>.
2. <https://bmcpyschology.biomedcentral.com/articles/10.1186/s40359-023-01252-w>.
3. <https://link.springer.com/article/10.1007/s11896-021-09491-6>.
4. <https://www.jstor.org/stable/2772472>.
5. <https://www.jstor.org/stable/26638383>.
6. <https://link.springer.com/article/10.1007/s11572-020-09530-z>
7. M. Usmonaliyev. Hozirgi zamon jinoyat huquqi muammolari. O'quv qo'llanma. – T.: TDYUI, 2006. –B. 200-201.
8. Sh.Umidullayev Retsidiv jinoyat tushunchasi va retsidiv jinoyat uchun javobgarlikning xususiyatlari. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001. –B.15.